

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FIZIKA-TEXNIKA

G.R.Rahmatov

Sabzavotlarni quritishda birlamchi ishlov berishdagi qurish kattaliklari tahlili.....	5
M.B.Nabiiev, O.V.Tillaboyeva, D.D.G'ulomjonova	
Yarimo'tkazgichli termoelektrik sovutgich (muzlat gich)lar asosidagi qurilmalarning qo'llanilishini o'rganish va uning tadbiqi.....	10
M.Kholdorov	
Study of infrared light drying processes of fruits and vegetables.....	16

KIMYO

Q.M.Norboyev, X.Sh.Tashpulatov, A.M.Nasimov, D.T.Toshpulatov, Sh.N.Magdiyev,**J.M.Xursandov, D.O.Sadikov**

Xona haroratida ligandlar yordamida qayta cho'ktirish usulida $CsPbBr_3$ tarkibli perovskit kvant nuqtalar sintezi va spektral tahlili.....	20
--	----

M.O.Rasulova, A.A.Ibragimov, T.Sh.Amirova

Oshlangan hayvon terilari tarkibidagi makro va mikroelementlar tahlili	26
--	----

I.R.Asqarov, Sh.Sh.Abdullayev, S.A.Mamatqulova, O.Sh.Abdulloyev, Sh.X.Abdulloyev

Development of a methodology for determining the amount of water-soluble vitamins using the YSSX method (case study of Jujube).....	32
--	----

A.A.Toshov, S.R.Razzoqova, I.Karimov, J.Jo'rayev, Sh.A.Kadirova, Sh.Sh.Turg'unboyev,**Y.Ro'zimov**

Синтез, строение и физико-химические свойства комплекса 2-метилтиобензоксазола с кобальтом	39
---	----

S.X.Botirov, D.A.Eshtursunov, A.Inxonova D.J.Bekchanov M.G.Muxamediyev

AN-31 Anionitiga bixramat ionlarining sorbsiyasini eritma ph muhitiga bog'liqligini tadqiq qilish.....	48
--	----

M.A.Yusupov, Sh.E.Satimova, I.R.Asqarov, M.M.Mo'minov

Determination of polyphenols and vitamins in artichoke (<i>Cynara scolymus L.</i>) leaves	52
---	----

S.X.Botirov, D.A.Eshtursunov, Y.S.Fayzullayev, D.J.Bekchanov, M.G.Muxamediyev

Sanoat anionitiga suniy eritmalaridan Cr(VI) ionlarining sorbsiya kinetikasini tadqiq qilish.....	60
---	----

M.M.Yadgarova, Sh.B.Hasanov, O.I.Xudoyberganov, Z.Sh.Abdullayeva

Ni(II) ionining salitsilamid bilan kompleks birikmasi sintezi va kristall tuzilishi	65
---	----

O.K.Askarova, G.M.Ikromova, M.U.Juraev, E.X.Botirov

Химический состав эфирного масла из надземной части <i>Haplophyllum acutifolium</i>	73
---	----

X.V.Istroilova, B.Y.Abdug'aniyev

Jundan tayyorlangan matolarning sifat va miqdoriy tarkibini fizik-kimyoviy uslublarda tadqiq qilish.....	78
---	----

M.M.Yadgarova, Sh.B.Hasanov, O.I.Xudoyberganov, M.A.Ashirov

Cu(II) ionining, salitsilamid hamda trietanolamin bilan kompleks birikmasi sintezi va kristall tuzilishi	85
---	----

N.T.Xo'jayeva, B.Y.Abdug'aniyev, V.U.Xo'jayev

<i>Fritillaria severzovii</i> o'simligi piyozi va uning suvli ekstraktini makro va mikroelementlar tahlili	93
--	----

X.R.Kosimova, O.A.Bozorboyeva, N.K.Malikova, S.B.Raximov, A.E.Yangibayev,**Sh.Sh.Turg'unboyev**

Cu (II) ionini sorbsion-spektrofotometrik aniqlash	97
--	----

O.P.Mansurov, B.Z.Adzizov, X.R.Latipov, B.B.Rahimov, M.Y.O.Ismoilov

Метод производства добавок к бензину	103
--	-----

BIOLOGIYA

Sh.X.Yusupov, I.I.Zokirov, K.H.G'aniyev, M.A.Masodiqova

Zararkunanda hasharotlar populyatsiyasining mavsumiy rivojlanish sur'atlari (no'xat agrotsenozi misolida).....	112
---	-----

A.K.Xusanov, A.A.Yaxyoyev, J.B.Nizomov, I.I.Zokirov, M.A.Abduvaliyeva

Mikroplastiklarni hidrobiontlar organizmiga ta'sirini o'rganilishini adabiyotlarda yoritilishi	118
--	-----

Z.A.Jabbarov, D.K.Begimova

Tuproqda B guruh vitaminlarining mikroorganizmlar tomonidan sintez qilinishi.....	123
---	-----

S.O.Khuzhzhiev

Biological wastewater treatment using higher aquatic plants.....	130
--	-----



UO'K: 546.742;548.737;661.725.844.3;546.05;546.06

Ni(II) IONINING SALITSILAMID BILAN KOMPLEKS BIRIKMASI SINTEZI VA KRISTALL TUZILISHI**СИНТЕЗ И КРИСТАЛЛИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА КОМПЛЕКСНОГО СОЕДИНЕНИЯ ИОНОВ NI(II) С САЛИЦИЛОМИДОМ****SYNTHESIS AND CRYSTAL STRUCTURE OF THE COMPLEX COMPOUND OF NI(II) ION WITH SALICYLAMIDE****Yadgarova Matluba Matmuratovna¹ **¹Xorazm Ma'mun akademiyasi tayanch doktoranti**Hasanov Shodlik Bekpo'latovich² **²Xorazm Ma'mun akademiyasi, kimyo fanlari nomzodi**Xudoyberganov Oybek Ikromovich³ **³Xorazm Ma'mun akademiyasi, k.f.f.d.(PhD)**Abdullayeva Zubayda Shavkatovna⁴ **⁴Xorazm Ma'mun akademiyasi, k.f.f.d.(PhD)**Annotatsiya**

Ushbu maqolada $[Ni(Sal)_2(H_2O)_4]$ (Sal-salitsilamid) tarkibli kompleks birikmaning sintezi va uning kristall tuzilishi muhokama qilingan. Sintez qilingan kompleks birikma tuzilishi rentgen strukturaviy analiz usulni yordamida o'rGANildi. Nikel tanlangan ligand salitsilamid bilan karbonil guruhidagi kislorod atoni orqali koordinatsiyaga uchrashi, shuningdek koordinatsiyalarishda gidrosil guruhi qatnashmayotganligi rentgen tuzilish tahlili (RTT) usuli yordamida ko'rsatib berildi. Ni(II) ionining salitsilamid bilan reaksiyasi orqali olingan, kompleks birikmaning stimulyatorlik xossasi tekshirildi va daslabgi ligandga nisbatan ortganligi tajribalar natijasida aniqlandi. Bu stimulyator Xorazm viloyatida sho'r turqogli shaoitda o'suvchi sholi o'simligiga qo'llanilib, ijobji natijalar olindi. Kompleks birikmaning sirt yuzaviy tahlili Crystal Explorer 17.5 dasturi yordamida amalga oshirilib, molekulalararo vodorod bog'lari birikmaning kristall holatdagi tuzilishiga katta hissa qo'shishi (23,3%) isbotlandi.

Аннотация

В данной статье обсуждается синтез комплексного соединения $[Ni(Sal)_2(H_2O)_4]$ (Sal - салициломид) и его кристаллическая структура. Структура синтезированного комплексного соединения была изучена с использованием методов рентгеновского структурного анализа. Через рентгеноструктурный анализ (PCA) было продемонстрировано, что никель координируется с выбранным лигандром салициломидом через атом кислорода карбонильной группы, а гидроксильная группа не участвует в координации. Стимуляторные свойства комплексного соединения, полученного в результате реакции ионов Ni(II) с салициломидом, были исследованы и обнаружено, что они превосходят свойства исходного лиганда. Этот стимулятор был применен к рисовым растениям, растущим в условиях солончаковых почв в Хорезмской области, что дало положительные результаты. Поверхностный анализ комплексного соединения был проведен с использованием программы Crystal Explorer 17.5, что подтвердило, что межмолекулярные водородные связи значительно способствуют кристаллической структуре соединения (23,3%).

Abstract

This article discusses the synthesis of the complex compound $[Ni(Sal)_2(H_2O)_4]$ (Sal - salicylamide) and its crystal structure. The structure of the synthesized complex compound was studied using X-ray structural analysis methods. It was demonstrated through X-ray structure analysis (XSA) that nickel coordinates with the selected ligand salicylamide via the oxygen atom of the carbonyl group, and that the hydroxyl group is not involved in coordination. The stimulatory properties of the complex compound obtained from the reaction of Ni(II) ions with salicylamide were investigated and found to be superior to those of the initial ligand. This stimulant was applied to rice plants growing in saline soil conditions in the Khorezm region, yielding positive results. The surface analysis of the complex compound was conducted using the Crystal Explorer 17.5 program, which proved that intermolecular hydrogen bonds significantly contribute to the crystal structure of the compound (23.3%).

Kalit so'zlar: ligand, kompleks birikma, sintez tarkib, tuzilish, Hirshfeld sirt yuzaviy tahlil, rentgen tuzilish tahlili (RTT), element analizi, salitsilamid

Ключевые слова: лиганда, комплексное соединение, состав синтеза, структура, анализ поверхности Хиршфельда, рентгеноструктурный анализ (PCA), элементный анализ, салициламид.

Key words: ligand, complex compound, synthesis composition, structure, Hirshfeld surface analysis, X-ray structure analysis (XSA), elemental analysis, salicylamine.

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda sotuvda mayjud bo'lgan biologik faol birikmalarning biometallar bilan metallokomplekslarini sintez qilish usullarini ishlab chiqish va ularning fizik-kimyoiy xossalari aniqlashga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Ushbu birikmalar farmasevtika va qishloq xo'jaligi sohalarda keng miqysoda antibiotiklar, gerbitsid, akaritsid va stimulyatorlar sifatida foydalanib kelinmoqda. Aynan shu maqsadda hozirgi davrda ishlatilayotgan aralash ligandlardan tashkil topgan kompleks birikmalari ko'plab biologik sistemalarda sodir bo'layotgan jarayonlar uchun asos bo'lib xizmat qilishi tufayli, ularga bo'lgan qiziqishni ya'nada kuchaytirmoqda [1]. Ularning hosilalari azot va kislород saqlagan birikmalar sinfiga mansub bo'lib, ular tibbiyotda turli dorivor vositalar sifatida va qishloq xo'jaligida esa turli o'simliklarni o'stiruvchi stimulyatorlar sifatida keng qo'llaniladi. Shu jumladan, salitsilamid ishtirokida sintez qilingan shiff-asosli kobalt komplekslari oksidlanish reaksiyalarini katalizlash, kislород faollashtiruvchi, qaytariladigan, kislородни tashish, antibakterial, o'smaga qarshi vositalar, enantioselektiv va assemetrik kataliz uchun e'tiborni tortadi, ushbu komplekslarning o'ziga xos xususiyati ularning bimolekulyar model sifatida harakat qilish qobiliyatidir [2]. Akademik Ibragimov B.T. va uning shogirtlari tomonidan sintezlangan $[Cu_2(PNBA)_2(TEA)_2] \cdot 2H_2O$ tarkibli kompleks birikma 0.002% li eritma holida g'o'za va bug'doy o'simliklariga qo'llash orqali, hosildorlikni 12-18% ga oshirishini o'rganganlar [3]. Aynan shu metodga tayangan holda, sintezlangan $[Ni(Sal)_2(H_2O)_4]$ tarkibli kompleks birikma eritma holatida sholi va makkajo'xori o'simliklarga qo'llanilib, o'simlik bakteriyali kasalliklarga nisbatan yuqori biologik faollik namoyon qilishi va o'stiruvchi ta'sirga ega ekanligi o'rganildi. Shuningdek, $[Ni(Sal)_2(H_2O)_4]$ kompleks birikma tarkibida biogen element nikel va faol ligand salitsilamid molekulasi tutishi tufayli, dastlabgi ligand sifatida olingan 2-gidroksibenzamiddan ko'ra o'simliklarga ta'siri yuqori ekanligi ko'rsatib berildi.


Tadqiqotning maqsadi nikel(II) atsetati hamda salitsilamid bilan kompleksining sintezi, tarkibi, tuzilishi va xossalari aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun nikel(II) atsetatining kristallogidrati va 2-gidroksibenzamid bilan kompleks birikmasining sintez qilish usullari ishlab chiqilgan va sintezi amalga oshirilgan. Sintez qilingan birikmlarning tarkibi va tuzilishi RTT, element analiz va molekulaning Hirshfeld sirt yuza tahlili Crystal Explorer 17.5 dasturi yordamida o'rganilgan.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Nikel Ni(II) d⁸ elektron konfiguratsiyasiga ega muhim element hisoblanadi. U dastlab ureazaning faol markazida topilgan. Ni(II) ionlari asosan odamlarda nuklein kislotalar bilan bog'liq, chunki ular DNKnинг azot asoslari bilan muvofiqlashadi. Shuningdek, u oqsillarning tuzilishi va funksionalligida ishtirok etadi [4]. F.K.Matmurodova, M.X.Matyakubova, M.Fazilova, Sh.B.Xasanov tomonidan yozilgan "Kobalt (II) tuzlarining salitsilamid bilan koordinatsion birikmasining tuzilishini kvant kimyoiy asoslash" mavzusidagi maqolada salitsilamidning 3d-metall tuzlari bilan karboksil guruhining kislороди va amid guruhining azoti, shuningdek, karboksil va gidroksil guruhlarining kislород atomi orqali bog'lanishi nazariy jihatdan asoslab berilgan [5]. Tarkibida azot saqlovchi benzo (4,5) – imidazo (1,2-s) pirimidin karbon kislotalari bilan metall komplekslari sintez qilingan. Fizik kimyoiy tahlil natijalari (RST, IQ va elektron spektroskopiya, potensiometriya) va nazariy kvant- kimyoiy hisoblashlar asosida koordinatsion birikmalarning tarkibi va ularning tuzilishi aniqlandi. 3-(3-metoksi-5-nitrofenilgidrazo) pentan -2,4-dion va 5-[(4-nitrofenil) gidrazo] pirimidin-2,4,6-trionning metallar bilan kompleks birikmalari o'rganildi. Benzo(4,5) – imidazo(1,2-) pirimidin karbon kislotalari va ular asosida metall komplekslarini poliamid tolalari uchun bo'yoqlar sifatida foydalanish mumkinligi aniqlandi. Tahlil natijalariga ko'ra, bunday bo'yoqlar mexanik omillarga chidamliligi bilan atrof muhitni muhofaza qilishda samarali ekanligi aniqlandi [6,7,8].


KIMYO

Kembrij kristallografik ma'lumotlar (CCDC-2024) bazasi tahliliga binoan, 2024-yilgacha salitsilamid bilan 120 tadan ortiq kompleks birikmalar olingan va tuzilishi aniqlangan. Salitsilamid ishtirokida olingan koordinatsion birikmalar, ularning tuzilishi, fizik-kimyoviy xossalari o'rGANISH bo'yicha ishlarni T.Gokturk., C.G.Topkaya., T.Hokelek., R.Gup., F.C.Anson., J.A.Christie., T.J.Collins., R.J.Coots., T.T.Furutani., S.L.Gipson., J.T.Keech., T.E.Krafft., B.D.Santarsiero., G.H.Spies., T.J.Collins., Ting Lai., G.T.Peake va ularning jamoalari olib borishgan. Bu olimlarning ishlaridan farqli ravishda ilk bor salitsilamidning nikel bilan eritma muhitida $[Ni(Sal)_2(H_2O)_4]$ tarkibli kompleks birikmasi sintez qilinib, monokristallari o'stirildi va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Bioorganik kimyo institutining jamoaviy foydalanish markaziga o'rnatilgan XtaLAB Synergy(Rigaki, Yaponiya) difraktometrida rentgenstrukturaviy tahlili o'tkazildi. Ushbu tadqiqot ishini bajarishda reaksiya uchun "a.u.t" tipidagi reagentlardan foydalanildi. Erituvchi sifatida distillangan suv va etil spirt (96% li) ishlataldi. Olingan kompleksning kristall tuzilishi rentgen tuzilish tahlili usuli yordamida o'rGANILDI. Mazkur ishda nazarda tutilgan kompleks birikma Xorazm Ma'mun akademiyasining fizik-kimyoviy tahlil qilish laboratoriyasida, quydagicha usulda sintez qilinib, tozalab olingan. Dastlab nikel(II) atsetat kristallogidrat tuzidan $(Ni(CH_3COO)_2 \cdot 4H_2O)$ 0.249 g (1 mmol) olinib, 0.1 M li suvli eritmasi tayyorlandi. 2-gidroksibenzamid ligandidan ham 0.137 g (1 mmol) olinib 0.1 M li spirtli eritmasi tayyorlandi. Hosil qilingan eritmalarda 1:2 mol nisbatda olinib (M:L) aralashтирildi. Reaksiyon aralashma dastlab xona haroratida, so'ngra esa 45-50 °C haroratda, magnitli aralashтиrgichda 30-35 minut aralashтирildi (1-reaksiya). Jarayon oxirida reaksiyon aralashma xona haroratiga keltirildi va 7 sutka o'zgarmas haroratlari termostatda qoldirildi [9,10]. Sekin bug'latish usulida olingan och-yashil rangli monokristallar RTT usulida tuzilishi aniqlashga yordam beruvchi *Cif* fayli olindi va monokristalga tegishli parametrlar aniqlandi [11]. Sintez reaksiyasini quydagicha ifodalash mumkin:



1-reaksiya. $[Ni(Sal)_2(H_2O)_4]$ tarkibli kompleks birikmaning sintezi

Olingan kompleks birikma monokristalinining tuzilish tasvirini RTT usulida yordamida olingan *Cif* fayl orqali quydagicha ekanligini ko'rsatish mumkin (1-rasm)



1-rasm. Sintezlangan $[Ni(Sal)_2(H_2O)_4]$ tarkibli kompleks birikma monokristalinining tasviri

NATIJA VA MUHOKAMA

Sintezlangan kompleks birikmaning tuzilishini o'rGANISHDA *Mercuriy* dasturidan foydalанил, bir necha tahlillar amalga oshirildi. Bu tahlil natijalari yordamida kompleks birikma tarkibidagi

atomlarning bog'lanish tartibi (2-jadval) va ular orasidagi masofa, burchak kattaliklar (3-jadval, 2-rasm) shuningdek, vodorod bog'lanishlar aniqlanib (3-rasm), natijalar tegishli jadvallar yordamida ko'rsatildi.

1-Jadval**Nikel(II) salitsilamidli-kompleks birikmaning kristallografik ma'lumotlari va strukturasiga aniqlik kirituvchi parametrlar**

Parametr	Qiymatlar	Parametr	Qiymatlar
[Ni(Sal) ₂ (H ₂ O) ₄]			
Formula	C ₁₄ H ₂₂ NiN ₂ O ₈	Kristall o'lchami, [mm]	0.17×0.13×0.07
Molekulyar massa	405.03	Harorat T, °K	293
Singoniya	monoklinik	Skanerlash oralig'i θ, °grad.	2,18; -27,62
Fazoviy guruh	P-1	Interval h,k,l	-32:27; -23:18; -13:11
a, Å	22.13	Jami reflekslar	11548
b, Å	15.64	Mustaqil reflekslar soni	1754
c, Å	15.64	R _{int}	0.062
α °	90	F ² ≥2σ(F ²) Kriteriy	886
β °	135,62	Aniqlagan parametrlar	172
γ °	90	Stukturani aniqlash sifati	2.16
V, Å ³	3830	R ₁ , wR ₂ (I>2σ(I))	0.0831, 0.1545, 0.98
Z	2	Δρmin/max, eÅ ⁻³	0.826, 0.842
D _x , g/cm ⁻³	0.351	CCDC-raqami va ref-kod	
μ(CuK _α), mm ⁻¹	0.263		


Bu monokristalga tegishli parametrlari Kembrij kristallografik ma'lumotlar bazasida mavjud bo'lgan koordinatsion birikmalarning tegishli ma'lumotlari bilan taqqoslash orqali, uning bu parametrlari mavjud ma'lumotlar bazasida yo'qligi aniqlandi (1-jadval) va individual yangi tarkibli koordinatsion birikma ekanligi qayd qilindi. Bu [Ni(Sal)₂(H₂O)₄] kompleks birikmaning hosil bo'lishida salitsilamid tarkibidagi karbonil gurux kislorodi ishtirot qilib, gidroksil guruhidagi kislorod atomi, aminoguruhi tarkibidagi azot atomi ham koordinatsiyalanishda qatnashmaganligi tasvirlardan ma'lum.

2-jadval**Kompleks birikmaning bog' uzunliklari**

Bog'	d, Å	Bog'	d, Å
Ni-O(1)	1.8001	O(8)-H(16)	0.9408
Ni -O(3)	1.7946	O(8)-H(15)	0.9411
Ni-O(5)	1.8339	N(1)-H(1)	1.0214
Ni-O(6)	1.8377	N(1)-H(2)	1.0217
Ni-O(7)	1.8306	C(1)-C(2)	1.3394
Ni-O(8)	1.8247	C(1)-C(6)	1.3404
O(1)-C(7)	1.2143	N(2)-H(17)	1.0223
O(2)-C(5)	1.3633	N(2)-H(18)	1.0233
O(3)-C(8)	1.2151	C(2)-C(3)	1.3428
O(4)-C(14)	1.3598	C(3)-C(4)	1.3469
N(1)-C(7)	1.3926	C(4)-C(7)	1.3655
N(2)-C(8)	1.3899	C(4)-C(5)	1.3521

Kompleks birikmaning bog'lanish burchaklari

Burchak	ω , grad	Burchak	ω , grad
O(1)-Ni-O(3)	87.65	H(15)-O(8)-H(16)	105.21
O(1)-Ni-O(5)	87.37	Ni-O(8)-H(16)	105.2
O(1)-Ni-O(6)	80.65	C(7)-N(1)-H(2)	120.23
O(1)-Ni-O(7)	159.74	C(7)-N(1)-H(1)	119.22
O(1)-Ni-O(8)	96.24	C(2)-C(1)-C(6)	119.28
O(3)-Ni-O(5)	86.80	H(1)-N(1)-H(2)	121.4
O(3)-Ni-O(6)	167.25	C(1)-C(2)-C(3)	119.7
O(3)-Ni-O(7)	110.07	C(8)-N(2)-H(18)	119.6
O(3)-Ni-O(8)	101.15	C(8)-N(2)-H(17)	119.64
O(5)-Ni-O(6)	87.63	H(17)-N(2)-H(18)	123.65
O(5)-Ni-O(7)	84.03	C(2)-C(3)-C(4)	120.79
O(5)-Ni-O(8)	171.36	C(3)-C(4)-C(5)	119.94




2-rasm. Olingan $[\text{Ni}(\text{Sal})_2(\text{H}_2\text{O})_4]$ tarkibli kompleks birikmaning bog'lanish burchaklari

4-jadval

Kristall tuzilishidagi vodorod bog'lar (\AA)





Bog'lanish D-H \cdots A	Masofa, \AA			Burchak D-H \cdots A, grad.	Atom koordinatalari, A(i)
	D-H	H \cdots A	D \cdots A		
[$[\text{Ni}(\text{Sal})_2(\text{H}_2\text{O})_4]$]					
N(1) \cdots H(1)...O(3)	1.02	2.21	2.756	112	$x, -1/2 + y, -1/2 + z$
N(1) \cdots H(1)...O(8)	1.02	2.13	2.774	119	$x, 1/2 + y, 1/2 + z$
O(4) \cdots H(7)...O(3)	0.97	2.37	3.023	124	$1/2 + x, 1/2 + y, 1/2 + z$
O(4) \cdots H(7)...O(8)	0.98	2.45	2.781	102	$1/2 + x, 1/2 + y, 1/2 + z$
O(7) \cdots H(10)...O(4)	0.94	2.46	3.143	130	$1/2 + x, -1/2 + y, 1/2 + z$
O(8) \cdots H(15)...O(4)	0.94	2.24	2.782	116	$1/2 + x, 1 - y, 1/2 + z$


D-donor, A- akseptor. i-simmetriya kodlari



3-rasm. Olingan kompleks birikmaning atomlari orasida vodorod bog'larning vujudga kelishi

Kristalning elementar yacheykasi parametrlari quyidagicha: fazoviy guruhi P-1, $a=22.13\text{ \AA}$, $b=15.64\text{ \AA}$, $c=15.64\text{ \AA}$, $\alpha=90^\circ$, $\beta=135.62^\circ$, $\gamma=90^\circ$, $V=3830\text{ \AA}^3$, $Z=2$. $[\text{Ni}(\text{Sal})_2(\text{H}_2\text{O})_4]$ kompleksi monoyadroli bo'lib Ni^{2+} ionining 2-gidroksobenzamid molekulasi bilan hosil qilingan, neytral tabiatga ega [12,13]. Kompleks tarkibidagi $\text{Ni}-\text{O}(1)$, $\text{Ni}-\text{O}(3)$, $\text{Ni}-\text{O}(5)$, $\text{Ni}-\text{O}(6)$, $\text{Ni}-\text{O}(7)$ va $\text{Ni}-\text{O}(8)$ bog'lari orasidagi masofasi qiymati mos ravishda 1.8001 \AA , 1.7946 \AA , 1.8339 \AA , 1.8377 \AA , 1.8306 \AA va 1.8247 \AA ga teng $\text{O}(1)-\text{Ni}-\text{O}(3)$, $\text{O}(1)-\text{Ni}-\text{O}(5)$, $\text{O}(1)-\text{Ni}-\text{O}(6)$, $\text{O}(1)-\text{Ni}-\text{O}(7)$, $\text{O}(1)-\text{Ni}-\text{O}(8)$, $\text{O}(3)-\text{Ni}-\text{O}(5)$, $\text{O}(3)-\text{Ni}-\text{O}(6)$, $\text{O}(3)-\text{Ni}-\text{O}(7)$ va $\text{Ni}-\text{O}(3)-\text{C}(8)$ ning burchak kattaliklari mos ravishda 87.65, 87.37, 80.65, 159.74, 96.24, 86.80, 167.25, 110.07 va 131.07 ga teng ekanligini ko'rish mumkin. Shuningdek, Molekulaning Hirshfeld sirt yuza tahlili va elektron zinchliklarning ta'sirlashish energiyalari Crystal Explorer 17.5 dasturida amalga oshirildi [14,15]. Hirshfeld sirti analizi miqdoriy analiz usuli hisoblanadi. $[\text{Ni}(\text{Sal})_2(\text{H}_2\text{O})_4]$ kompleks birikmasining ikki o'chovli barmoq izlarini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, molekulalararo vodorod bog'lari birikmaning kristall holatdagi tuzilishiga eng katta hissa qo'shadi (23,3%): $\text{O}\cdots\text{H}$, $\text{C}\cdots\text{H}$, $\text{C}\cdots\text{O}$ va $\text{O}\cdots\text{O}$ bog'larining nisbiy hissalari mos ravishda 6,5%, 0,8%, va 1,8 % ni tashkil qiladi. $\text{C}\cdots\text{C}$ bog'larining nisbiy ulushi 8,1% ni tashkil etadi va bu kristall tarkibida mavjud bo'lgan klassik $\pi\cdots\pi$ bog'lanishlarning o'zaro tasiri mavjudligini anglatgan (4-rasm).





4-rasm. $[\text{Ni}(\text{Sal})_2(\text{H}_2\text{O})_4]$ kompleksining Xirshfeld sirti xaritasi (a) va molekulalararo ta'sirlashuvlarning nisbiy xissalari (b).

XULOSA

Sintez qilingan kompleks birikmaning tarkibi, tuzilishi va xossalari zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari bilan o'rganilganda, birikma tarkibidagi salitsilamidnning kislород atomi va markaziy atom nikel orasidagi bog' tabiat, mustahkam ion bog'lanish ekanligi aniqlandi. Kompleks birikmadagi markaziy atom nikel monoklinik tipida, ikkita molekula salitsilamidni kislород atomlari orqali va to'rt molekula suv bilan kislород atomi orqali koordinatsiyalanib, $[\text{Ni}(\text{Sal})_2(\text{H}_2\text{O})_4]$ tarkibli kompleks birikmani xosil qiladi. Yaratilgan sintez metodi o'xshash koordinatsion birikmalarni keyinchalik sintez qilishda qo'llanilishi mumkin. Markaziy atom nikelning koordinatsion soni 6 ga teng bo'lib, sp^3d^2 xolatda gibridlangan. Sintezlangan koordinatsion birikma, eritma holida qishloq xo'jaligida yangi stimulyator sifatida qo'llanilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mjos K.D., Orvig C. Metallodrugs in Medicinal Inorganic Chemistry. Chem. Rev. – 2014. – Vol.114(8). – P. 4540-4563.
2. Krstic N.S., Nikolic R.S., Stankovic M.N., Nikolic N.G., Dordevic D.M. Coordination compounds of M(II) biometal ions with acid-type anti-inflammatory drugs as ligands—a review. Tropical Journal of Pharmaceutical Research. – 2015. – Vol.14(2). – P. 337-349.
3. Khudoyberganov O.I., Ruzmetov A.X., Ibragimov A.B., Ashurov J.M., Khasanov Sh.B., Ibragimov B.T. Synthesis, crystal structure and Hirshfeld surface analysis of the binuclear Cu(II) complex with 4-nitrobenzoic acid and triethanolamine. *Chemical Data Collections*.100802. doi: 10.1016/j.cdc.2021.100802
4. Ariana C. F. Santos, Luís P. G. Monteiro, Adriana C. C. Gomes, Fátima Martel, Teresa M. Santos and Bárbara J. M. Leite Ferreira. NSAID-Based Coordination Compounds for Biomedical Applications: Recent Advances and Developments. *Int. J. Mol. Sci.* – 2022. – Vol.23, 2855, P. 1–22.
5. Матмуродова Ф.К., Матякубова М.Х., Хасанов Ш.Б. Квантовохимическое обоснование строения координационного соединения солей кобальта (II) с салициламидом // Universum: химия и биология: Научный журнал. Москва -2020.- выпуск: 10(76). с. 25-28.
6. Аль Тахан Рана Абдулила Аббас. АзопроизводныЕ бензо[4,5]имидаzo[1,2-с]пиримидин карбоновых кислот как новые перспективные азокрасители и пигменты. Всероссийская молодежная научная школа «Химия и технология полимерных и композиционных материалов» (Москва, ноябрь 2012 г.). Тезисы докладов. С. 125.
7. Ковалчукова О.В., Аль Тахан Рана А.А., Кузнецова Д.Н., Волянский О.В., Страшнова С.Б., Кобрakov КИ Строение, кислотно-основные характеристики и комплексообразование 2- арилгидразо-1,3-дикарбонильных соединений. // ХХIII симпозиум Современная химическая физика (тезисы докладов). Туапсе, 2011. С. 23.
8. Страшнова С.Б., Аль-Тахан Рана А.А., Ковалчукова О.В. Электронные спектры поглощения и процессы комплексообразования некоторых производных арилгидразонов. // IX Всероссийская конференция с международным участием «Спектроскопия координационных соединений». Сборник тезисов. 13-19 сентября 2012 г. г. Туапсе. С. 83- 85.
9. Ruzmetov A.Kh., Ibragimov A.B., Toderich K.N. Synthesis, structure of the Ni (II) complex of 4-hydroxybenzoic acid // European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – №12(2). – p.1-5
10. Ruzmetov A. Kh., Ibragimov A.B., Myachina O.V., Kim R.N., Ibragimov B.T. Synthesis, crystal structure, Hirshfeld surface analysis and bioactivity of the Cu mixed-ligand complex with 4-hydroxybenzoic acid and monoethanolamine // Chemical Data Collections. – 2022. – V.38. – p.100845.
11. CrysAlisPro. Ver. 1.171.33.40, UK: Oxford Diffraction, 2007.
12. T.Go'kturk., C.G.Topkaya., T.Ho'kelek., and R.Gup. ISSN 0022-4766, Journal of Structural Chemistry, 2024,

Vol. 65, No. 1, pp. 15-27

13. Sheldrick, G. M. Crystal structure refinement with SHELXL// Acta Cryst. 2015.–V. C71, P 3–8.
doi:10.1107/S2053229614024218

14. Ruzmetov A., Ibragimov B., Ashurov J., Boltayeva Z., Ibragimov B., Usmanov S. Synthesis, crystal structure and Hirshfeld surface analysis of hexaaqua nickel (II) bis (4-hydroxybenzoate) dihydrate // Acta Crystallographica Section E: Crystallographic Communications. – 2022. – V.78. – №6. – p.660-664.

15. Alimnazarov B.Kh., Ashurov J.M., Ibragimov A.B., Mengorov I.J., Sabirov V.K., Khodjaniyazov K.U. Hirshfeld surface analysis of the tetra-(2,4-D)- Cadmium(II) Ethylenediamine monohydrate // Доклады Академии Наук РУз. №2. -2021.– С. 82-85